

7-dekabr - Xalqaro fuqaro aviatsiyasi kuni

2021 7 Dekabr

Uzbekistan Airways jamoasi aviatsiyani sevadigan va o'z hayotini samosiz tasavvur qila olmaydigan barcha insonlarni tabriklaydi!

Fuqaro aviatsiyasi tufayli siz nafaqat masofani tezda yengib o'tishingiz, balki parvoz vaqtida ham sayohatdan zavqlanishingiz mumkin.

P.S. Pastda O'zbekistonda fuqaro aviatsiyasi qanday paydo bo'lganligi haqida qiziqarli ma'lumotlarni topishingiz mumkin.

O'zbekiston fuqaro aviatsiyasi tarixidan 10 ta fakt

1. 1923-yil - Toshkentda Turkiston havoda uchish jamiyatining tashkil etilishi
2. 1924-yil - Toshkent-Pishpek-Olma-ota yo'nalishi bo'yicha "Junkers P-13" havo kemasida birinchi yo'lovchi parvozining bajarilishi
3. 1924-1930-yillar - "Kogon" aeroporti birinchi havo kemalarining asosiy bazasi bo'lib, Toshkent-Buxoro-Xiva-To'rtko'l va Toshkent-Buxoro-Qarshi-Termiz yo'nalishidagi qatnovlarda oraliq vosita sifatida foydalanilgan.
4. 1924-yil - Toshkentda birinchi aviata'mirlash ustaxonasini tashkil etilishi
5. 1941-yil - O'zbekistonda uchuvchilar va havo kemasiga xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarning birinchi hududiy milliy maktabi tashkil etiladi
6. 1956-yil - Toshkentda Mi-4 birinchi vertolyotidan foydalanish boshlanishi.
7. 1960-yillari - An-24, Yak-40, Il-62, Tu-154 kabi havo kemalarini foydalanishga topshirilishi.
8. 1973-yil - havo harakatini nazorat qilish tizimini yaratilishi, bundan oldin 1930-yillarida harakat xizmati faoliyat ko'rsatgan.
9. 1992-yil - "Uzbekistan havo yo'llari" Milliy aviakompaniyasi (MAK)ning tashkil etilishi
10. 1993-yil - Airbus oilasiga tegishli havo kemalarining ishga tushirish, birinchi Boeing esa 1996-da qabul qilib olindi.

Telegram: t.me/uzbekistanairways